

YANGI DAVR O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA TAXMIS JANRINING O‘RGANILISH DARAJASI VA NAZARIY MUAMMOLARI

Fayzullayeva Sevara Sayfullayevna,

Shahrisabz davlat pedagogika institute tayanch doktoranti

G-mail: sevarafayzulayeva720@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek mumtoz she‘riyatining murakkab va o‘ziga xos bo‘lgan musammat shakllaridan biri – taxmisning zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida tutgan o‘rni va tadqiq etilish darajasi haqida fikr yuritiladi. Tadqiqotda janrning genezisi, ya‘ni arab va fors she‘riyatidagi ildizlari hamda turkiy adabiyotda janr sifatida shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari manbalar asosida yoritib beriladi. XX asrning ikkinchi yarmi va mustaqillik davri o‘zbek adabiyotshunosligida janrning o‘rganilish darajasi tizimlashtiriladi. Shuningdek, maqolada taxmischilik an‘anasining bugungi zamonaviy adabiy jarayondagi yashovchanligi, shoirlarimizning mumtoz adabiyotdagi salaflari ijodiga bo‘lgan munosabati, badiiy talqinlari va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: taxmis, musammat, genezis, nazariy muammo, badiiy mahorat, an‘ana va novatorlik, o‘zbek adabiyotshunosligi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются роль и степень изученности в современном узбекском литературоведении тахмиса — одной из сложных и самобытных строфических форм (мусаммат) узбекской классической поэзии. На основе первоисточников в исследовании освещаются генезис жанра, то есть его корни в арабской и персидской поэзии, а также его формирование и этапы развития как жанра в тюркской литературе. Систематизируется степень изученности жанра в узбекском литературоведении второй половины XX века и периода независимости. Также в статье анализируются жизнеспособность традиции тахмиса в современном литературном процессе, отношение современных поэтов к творчеству своих предшественников в классической литературе, их художественные интерпретации и специфические особенности.

Ключевые слова: тахмис, мусаммат, генезис, теоретическая проблема, художественное мастерство, традиция и новаторство, узбекское литературоведение.

Abstract. This article discusses the role and the state of research on takhmis—one of the complex and distinctive strophic forms (musammat) of Uzbek classical poetry—in modern Uzbek literary criticism. Based on primary sources, the study illuminates the genesis of the genre, namely its roots in Arabic and Persian poetry, as well as its formation and stages of development as a genre in Turkic literature. The level of study of the genre in Uzbek literary criticism of the second half of the 20th century and the period of independence is systematized. The article also analyzes the viability of the takhmis tradition in the contemporary literary process, the attitude of modern poets toward the heritage of their classical predecessors, their artistic interpretations, and specific characteristics.

Keywords: takhmis, musammat, genesis, theoretical problem, artistic skill, tradition and innovation, Uzbek literary criticism.

Kirish. O‘zbek mumtoz she‘riyatidagi janrlar o‘zining mukammalligi bilan jahon adabiyoti xazinasidan munosib o‘rin egallab kelmoqda. Xususan, taxmis janri o‘zbek she‘riyatida an‘anaviylik va individuallikni o‘zida birlashtirgan murakkab janrlaridan biri hisoblansa-da, uning yangi davr o‘zbek adabiyotshunosligidagi o‘rni hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda. Taxmis so‘zi arabcha “xamsun” (besh) o‘zagidan olingan bo‘lib, lug‘aviy jihatdan “beshlantirish” ma‘nosini anglatadi. Adabiy janr sifatida esa, muayyan bir shoir g‘azalining har bayti oldidan boshqa bir shoir tomonidan mazmun va shakl jihatlariga e‘tibor bergan holda ya‘ni g‘azal mazmunini mantiqiy davom ettirib, shakl

jihattidan vazn va qofiyasiga mos keladigan uch misra qo‘shilishi tushuniladi. Natijada har bir band besh misradan tashkil topgan yaxlit she‘riy parchaga aylanadi va u musammat (bandli she‘r) turkumining taxmis shakli sifatida yuritiladi.

O‘zbek adabiyotshunosligining bugungi taraqqiyot bosqichi mumtoz poetik shakllarni zamonaviy metodologik prinsiplar va matnlaro muloqot tamoyillari asosida qayta tadqiq etishni talab etmoqda. Yangi davr adabiyotshunosligida turgan asosiy vazifalardan biri ajdodlarimizdan meros qolgan ushbu janr namunalarini nafaqat badiiy, balki chuqur ilmiy-nazariy jihatdan qayta tahlil qilishdir.

Adabiyotlar tahlili. Jahon klassik adabiyotshunosligida musammat she‘r shakllarining paydo bo‘lishi va shakllanishi uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlari bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Rossiya-Tojikiston Slavyan universiteti professori, filologiya fanlari nomzodi, Abdushukur Abdusattorovning “Andalus” adabiy muhitining umumislom madaniyati va she‘riyatiga ta‘sirini yoritgan “*Musammat janrining shakllanishida arab-ispn ta‘siri*” nomli maqolasida quyidagilarni yozadi: “Arab adabiyoti tadqiqotchilarining aksariyati ta‘kidlaganidek, arab musammatlarining zamini IX asr oxirlaridan boshlab, Andalusda “muvashshahot” (miyonbasta / belbog‘li) nomi bilan alohida bandlardan iborat she‘rlarning shakllanishi bilan boshlangan. Bu davrgacha arablar uchun begona bo‘lgan ushbu shaklning asoschisi ispaniyalik arabzabon shoir Muqaddam ibn Muofadir”. [1] Maqolada tadqiqotchi arab adabiyotida musammatning shakllanish sabablari, vaqti va makonini aniqlash hamda uning forsiy she‘riyatda paydo bo‘lishi bilan bog‘liq muammolar haqida so‘z yuritadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tarixiy-genetik, qiyosiy-tipologik va tavsifiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Taxmis janrining kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlarini aniqlashda tarixiy-genetik yondashuv qo‘llanildi. Janrning nazariy muammolari va o‘ziga xos xususiyatlari adabiyotshunoslikdagi ilmiy manbalar asosida tavsifiy va tahliliy metodlar orqali yoritildi. Shuningdek, qiyosiy yondashuv yordamida taxmis va unga yaqin musammat shakllari o‘zaro solishtirildi. Tadqiqot materiali sifatida mumtoz va zamonaviy adabiyotshunoslikka oid ilmiy manbalar, maqolalar va adabiy namunalardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Musammat turkumining tarkibiy qismi bo‘lgan taxmis janrining kelib chiqishi va taraqqiyot bosqishlari haqida tadqiqotchi M. Zahir Ertekin “*Kurd klassik adabiyotida taxmis va Mulla Ali Baqustoniy taxmisleri*” nomli maqolasida taxmis janrining genezisi haqida quyidagicha yozadi: “Taxmis janri dastlab arab adabiyotida paydo bo‘lgan. Islom dini vujudga kelganidan so‘ng aynan qachon bugungi kundagi adabiy turlarga (janrlarga) o‘ta boshlagani aniq ma‘lum emas. Biroq tadqiqotchilar ilk taxmis namunalari uchun ikki shoir Ash-Shukrotisiy (vafoti 1073-yil) va Usoma Munqiz (vafoti 1188-yil) nomini ajratib ko‘rsatadilar”. Tadqiqotchi maqolasida ushbu janrni fors-tojik klassik she‘riyatida g‘azal va masnaviy kabi juda keng rivojlanmagan bo‘lsa ham, o‘ziga xos o‘ringa ega ekanligini ta‘kidlab o‘tadi. Fors

adabiyotidagi ilk taxmislar mashhur shoir Sa'diy Sheroziy she'rlariga bog'langanligini, uning g'azallariga yozilgan eng mashhur taxmislar afg'on shoiri Xalilulloh Xaliliyga tegishli ekaligini yozadi. Shuningdek, fors-tojik ijodkorlaridan Shoh Ismoil (Xatoiy) va Shayx Bahoiy kabilar Hofiz Sheroziy g'azallariga taxmislar bog'laganligini ko'rsatadi.[2]

Yangi davr o'zbek adabiyoti tarixida musammat she'r tizimi tarkibidagi muxammas va taxmis janrlarining nazariy asoslarini o'rganish ulug' ma'rifatparvar olim Abdurauf Fitrat nomi bilan bog'liq. Olim muxammas va taxmis atamalarini aralash ishlatadi: "Ba'zan bir shoir hurmat qilg'ani bir shoiming bir g'azalini oladi. Uning har iki misra'ining ustiga uch yoki to'rt misra bo'ylab, bir muxammas (beshlik) yoki musaddas (oltiliq) tuzadir. Bu adabiy yo'ldoshlikka *muxammas yo musaddas bog'lamoq* deyiladi. "Musammat"ga misol uchun Husayniyning Navoiy g'azaliga bog'lang'an muxammasini yozamiz".[3] Husayn Boyqaroning Navoiy g'azaliga yozgan taxmisidan ikki bandni keltirib o'tib, hozirgi o'zbek adabiy tiliga tushunarsiz bo'lgan so'z ma'nolarini izohlab o'tadi.

Adabiyotshunos olim Anvar Hojiahmedov "Mumtoz badiiyat lug'ati" asarida muxammaslarning qofiyalanish xususiyatiga ko'ra ikki turga ajratadi: "...keyingi bandlarning beshinchi misralari birinchi band bilan qofiyalanibgina kelsa, bunday she'rlarni muzdavij muxammas deb ataladi. She'riyatimizda yaratilgan muxammaslarning aksariyati muzdavij ko'rinishidadir. Ko'pchilik shoirlar Navoiy, Munis, Ogahiy, Nodira, Amiriy, Avaz kabi ijodkorlar faqat muzdavij muxammaslar yozganlar. Oxirgi misralar birinchi band bilan qofiyalangan holda barcha bandlarda aynan takrorlanib kelsa, mutakarrir muxammas sanaladi. Bunday asarlarni Mashrab, Komil Xorazmiy kabi shoirlar ijodida uchratish mumkin".[4] Olimning yuqoridagi fikrlaridan ma'lum bo'ladiki muzdavij muxammas deyilganda taxmis, mutakarrir muxammas deyilganda mustaqil muxammas turi nazarda tutilgan. Taniqli navoiyshunos va tasavvufshunos, matnshunos olim Yoqubjon Is'hoqov o'zining "So'z san'ati so'zligi" nomli badiiy san'atlar va adabiy janrlarni tadqiq etgan qomusiy tadqiqotida muxammas va taxmis janrlarining shakliy chegaralarini aniq belgilab beradi. "Taxmis qilish shunchaki shaklbozlik emas, balki mahorat sinovidir. Avvalo u yoki bu shoirning muayyan g'azalini tanlashda shoirning dunyoqarashi, sinfiy va estetik nuqta'i nazari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Qolaversa, taxmis usuli har bir shoir uchun mahurat sinovi, ilhomlantiruvchi kuch yoki biror muhim fikrni ro'yobga chiqarish vositasi bo'lishi mumkin".[5]

Turkiy adabiyotshunoslikda taxmis janrining genezisi va taraqqiyot masalasini o'rganilganda ushbu an'ananing tamal toshi so'z mulkinging sultoni Alisher Navoiy tomonidan qo'yilganligiga guvoh bo'lamiz. Garchi turkiy adabiyotda Navoiygacha musammatning ayrim namunalari uchrasa-da, taxmisni mustaqil janr sifatida uning klassik namunalarini yaratgan aynan hazrat Alisher Navoiy edi. Navoiy nafaqat turkiy tilda taxmis yozish an'anasini boshlab berdi, balki ushbu janrning poetik qonuniyatlarini o'z taxmisleri orqali ham belgilab berdi. Bu haqda Dilorom Salohiy o'zining "Navoiy nazmiyoti"

asarida quyidagilarni yozadi: “Alisher Navoiy o‘zbek mumtoz poeziyasida musammat janri taraqqiyotiga asos solgan ijodkordir. Navoiyga qadar musammatning faqat mustaqil (tab’i xud) shakllaridagi namunalarigina yaratilgan edi”. [6]

Turkiy she’riyatda janrlar tizimining takomillashuvi bevosita Alisher Navoiy ijodi bilan bog‘liqdir. Navoiy lirikasini chuqur o‘rganib uni tahlilga tortgan navoiyshunos olim Dilnavoz Yusupova shoirning o‘z g‘azaliga taxmis bog‘lashdek yangi an’anaga solganligi haqida quyidagilarni bayon etadi: “Alisher Navoiy she’riyati janrlarga boyligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Uning turkiy tilda yaratgan she’rlari 16 janrda bo‘lib, ushbu ijod namunalari tom ma’noda shakl va mazmun birligining yuksak namunasidir. Ushbu 16 janr orasida muhammas alohida o‘rin tutadi. Chunki o‘rganishlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, shoir o‘z g‘azallariga muhammas (taxmis) bog‘lashdek yangi an’anaga asos solgan ekan”. [7]

Alisher Navoiy asos solgan va takomillashtirgan bu an’ana turkiy she’riyatda o‘zining mustahkam o‘rniga ega. Tadqiqotimizda taxmis janrining tabiatini to‘liqroq ochib berish uchun unga shaklan o‘ta yaqin, ammo tarkibiy qonuniyatlariga ko‘ra tubdan farq qiladigan tashtir janri bilan qiyosiy tahlil o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Tashtir janri o‘zbek adabiyotida qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, arab, fors- tojik adabiyotlarida qo‘llanilgan. Tashtir so‘zi arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi “*ikkiga bo‘lish*”, “*parchalash*” ma’nolarini anglatadi. Tashtir xuddi taxmis kabi boshqa bir shoir g‘azali asosida yaratilib, kompozitsion jihatdan har bir bandi besh misradan iborat bo‘ladi. Biroq bu ikki janr o‘rtasidagi farq misralarning joylashuv o‘rniga ko‘ra farqlanadi. Taxmis yozayotgan shoir g‘azal baytining oldidan uchta misra qo‘shadi. Ya’ni beshlik bandning dastlabki 1,2,3-misralari keying ijodkorga, yakuniy 4va 5-misralari (g‘azalning asl bayti) g‘azal muallifiga tegishli bo‘ladi. Tashtir janrida esa ijodkor g‘azal baytini ichidan (o‘rtasidan) parchalab tashlaydi. Baytning birinchi misrasidan so‘ng o‘zining uchta misrasini kiritadi va band asl g‘azalning ikkinchi misrasi bilan yopiladi. Bunda bandning 1 va 5- misralari asosiy g‘azal muallifiga o‘rtadagi 2,3,4-misralar esa tashtir bog‘lovchiga tegishli bo‘ladi.

Adabiyotshunos olim Abdushukur Abdusattorov o‘z maqolasida ta’kidlaganidek, tashtir janri taxmisga qaraganda murakkabroq badiiy mahorat va poetik sintez talab etadi. Chunki tashtirda shoir o‘z matnini begona bayt ichiga shunday “payvandlashi” kerakki, natijada mantiqiy va sintaktik butunlik uzilib ketmasligi lozim. [8] Shunday qilib, yangi davr o‘zbek adabiyotshunosligida taxmisning nazariy muammolarini o‘rganishda uni tashtir kabi yondosh janriy shakllardan ajratib olish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Taxmis janr sifatida dastlab IX asr oxirida Andalus (Ispaniya) arabiy bo‘lgan adabiy muhitda vujudga kelgan. Taxmis janri “musammat” tizimi negizida shakllangan arab adabiyoti bosqichidan so‘ng, fors-tojik she’riyatida Sa’diy Sheroziy va Hofiz Sheroziy ijodi orqali jahon adabiyotida keng ommalashgan. Turkiy adabiyotda esa mazkur an’ananing janriy mezonlari hazrat Alisher Navoiy tomonidan tamal toshi sifatida qo‘yildi va u klassik janr darajasiga ko‘tarildi. Yangi davr o‘zbek adabiyotshunosligida

muxammas va taxmis janrlarini ilmiy tahlil etish Abdurauf Fitrat nomi bilan bog'liq. Fitrat o'zining "Adabiyot qoidolari" asarida muxammas va taxmis haqida o'z fikrlarini bildirib o'tadi. Keyinchalik adabiyotshunoslardan Yoqubjon Is'hoqov, Anvar Hojiahmedov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Salohiy, Tolibjon Ro'ziboyevlar tomonidan bu janr yanada chuqurroq o'rganildi va tahlil qilindi. Xulosa qilib aytganda, yangi davr o'zbek adabiyotshunosligida taxmis janrini o'rganish uning faqat shakliy xususiyatlarini emas, balki mazmun jihatidan asl g'azal mavzusi bilan bog'lanayotgan taxmis o'rtasidagi g'oyaviy-badiiy uyg'unligini tushunishni taqazo etadi. Bu esa o'zbek she'riyatidagi janrlar rang-barangligini yanada tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдусатторов А. Заминаҳои арабӣ-испании пайдоиши мусаммат // Ахбори ДДХБСТ (Силсилаи илмҳои гуманитарӣ). – Хучанд, 2012. – № 4 (52). – С. 208
2. Ertekîn M. Zahir. Di Edebiyata Klasîk a Kurdî de Texmîs û Texmîsên Mela'Elîyê Baqustanî // Mukaddime. – Mardin, 2012. – Sayı 6. – S. 73-90
3. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. IV jild: Darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar / Mas'ul muharrir H. Boltaboyev. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. –B. 41
4. Хожиахмедов А. Мумтоз бадиият лугати. Адабий жанрлар, шеър санъатлари, аруз ва кофия. - Тошкент: Янги аср, 2008. - Б. 75
5. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. – B. 126
6. Салохий Д. Навоий назмибти. Укув кулланма. - Самарканд. Зарафшон, 2013. — Б. 80.
7. Yusupova D. Alisher Navoiy taxmisleri. <http://www.e-adabiyot.uz/uzbek/mumtoz/1267-maqola.html>. 21.08.19
8. Абдусатторов А. Заминаҳои арабӣ-испании пайдоиши мусаммат // Ахбори ДДХБСТ (Силсилаи илмҳои гуманитарӣ). – Хучанд, 2012. – № 4 (52). – С. 209